YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-yil 5-son

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

ISSN: 2181-1938

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
E. Mustafayev, Y. Yarmolik, M. Sharifova, X. Yuldasheva, F. Usmonova, K. Abduvaliyeva

Musahhih:
M. Tursunov

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Vebsayt: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma
№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2026-yil 21-oktabrda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 11,6.
Adadi: 100. Buyurtma: № 110.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti sho'basi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (AQSH)

M. Vishovatiy – Polshaning Gdansk universiteti professori (Polsha)

M. Hayat – Muhammadiyah Malang universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

A. Xashimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

A. Yakubov – Origin Uzbekistan ijrochi direktori, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori, professor

E. Egamberdiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti Tadqiqot markazi rahbari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Sh. Ismoilov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Uzakova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

G. Yo'ldasheva – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Yo'ldoshev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti Tadqiqot markazi yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, dotsent

R. Altiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, professor v.b.

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho'basi professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. Oripov – Toshkent davlat agrar universiteti Huquqshunoslik kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

F. Hamdamova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. So'fiyeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Э. Мустафаев, Е. Ярмолик,
М. Шарифова, Х. Юлдашева,
Ф. Усмонова, К. Абдувалиева

Корректор:
М. Турсунов

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387.

Свидетельство
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
21.10.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 11,6. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 110.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, 37.

© Ташкентский государственный юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

З. Эсанова – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – директор Высшей школы правовых исследований Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – заведующий сектором узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по филологическим наукам, доцент

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – профессор юридической школы Бостонского колледжа (Бостон, США), доктор юридических наук

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

М. Хаят – преподаватель Университета Мухаммадия Маланг (Индонезия)

А. Хашимхонов – первый проректор по делам молодёжи и духовно-просветительской работе Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

А. Якубов – исполнительный директор Origin Uzbekistan, доктор юридических наук, доцент

М. Ахмедшаева – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Х. Хайитов – депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Э. Эгамбердиев – руководитель Исследовательского центра факультета междисциплинарного изучения права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

Ш. Исмоилов – заведующий сектором трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Г. Узакова – заведующая сектором экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Г. Юлдашева – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Юлдошев – ведущий научный сотрудник Исследовательского центра факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Р. Алтиев – декан факультета уголовного правосудия Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, и. о. профессора

М. Курбанов – и. о. профессора сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

С. Орипов – доцент кафедры права Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии по юридическим наукам

Ф. Хамдамова – и. о. доцента кафедры международного и публичного права Университета мировой экономики и дипломатии, доктор юридических наук

Д. Суфиева – старший преподаватель сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
E. Mustafaev, E. Yarmolik, M. Sharifova, Kh. Yuldasheva, F. Usmonova, K. Abduvalieva

Proofreader:
M. Tursunov

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address:
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 21.10.2026.
Paper size: A4. Cond.p.f: 11,6.
Units: 100. Order: № 110.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Director of the Graduate School of Legal Research of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

M. Hayat – Lecturer of the University of Muhammadiyah Malang (Indonesia)

A. Khashimhonov – First Deputy Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

A. Yakubov – Executive Director of Origin Uzbekistan, Doctor of Law, Associate Professor

M. Akhmedshaeva – Professor of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Kh. Khayitov – Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

E. Egamberdiev – Head of the Research Center of the Faculty of Interdisciplinary Studies of Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Sh. Ismoilov – Head of the Department of Labor Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

G. Uzakova – Head of the Department of Environmental Law of the Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

G. Yuldasheva – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Yuldoshev – Leading Research Fellow of the Research Center of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

R. Altiev – Dean of the Faculty of Criminal Justice of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Acting Professor

M. Kurbanov – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

S. Oripov – Associate Professor of the Department of Law of Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

F. Hamdamova – Acting Associate Professor of the Department of International Law and Public Law of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

D. Sufieva – Senior Lecturer of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

11 **RAXMANOV AKMAL ERGASHEVICH**
Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashda davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy majburiyatlari: mazmuni, turlari va amalga oshirish mezonlari
22 **ABDURAYIMOV MUHAMMAD SUVANQUL O'G'LI**
Advokatlik faoliyatini raqamlashtirish va advokatlik sirini saqlash kafolatlari
30 **ALLAMBAYEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**
Bojxona organlarida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tizimini takomillashtirish
38 **ASLONOVA NAFISA OLIMOVNA**
Tadbirkorlik subyektlarining halolligi prezumpsiyasi iqtisodiy huquqlarni sudda himoya qilishning protsessual kafolati sifatida

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

52 **TURDIALIYEV MUHAMMAD ALI PO'LATJON O'G'LI**
Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari
63 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA, KAYUMOVA ASALYA SULTONMURODOVNA**
Venchur investitsiyalar hamda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar (private equity): huquqiy tartibot va shartnomaviy konstruksiyalardagi farqlar
74 **ABDUSAMATOV NURULLO QOBILJON O'G'LI**
Raqamli mulk fuqarolik huquqi obyekti sifatida

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

82 **SOBITOVA UMIDAXON MUROD QIZI**
Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyaning oldini olishda prokuratura organlarining o'rni

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

92 **UTAYEV XUSNIDDIN XURRAMOVICH**
Raqamli muhitda mulkiy tajovuzlarni farqlashning jinoyat huquqiga oid mezonlari
101 **ABBOSOV MIRSULTON MIRSHAROF O'G'LI**
Sun'iy intellekt ishtirokida sodir etiladigan ayrim qilmishlarning obyektiv belgilari namoyon bo'lishi
110 **NEMATILLOYEV BAXROM VAXOBOVICH**
O'zbekiston jinoyat qonunchiligida "kiberjinoyat" tushunchasini takomillashtirishning nazariy-huquqiy asoslari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

116 **XALILOV AKRAM UTAMURODOVICH**
Sud ekspertizasi institutining huquq tizimidagi o‘rni va sohaviy qonunchilikdagi kolliziyalarni bartaraf etish masalalari
123 **NOSIROV AMIRXON BAHODIR O‘G‘LI**
Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatida isbotlash predmetining kriminalistik jihatlari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

130 **YUNUSOV XAYDARALI MURATOVICH**
Xalqaro organlarga murojaat qilish huquqini ta’minlashning mintaqaviy mexanizmlari va tartib-taomillari
143 **MUSAYEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish: xalqaro-huquqiy hamkorlikni rivojlantirish tendensiyalari
154 **UMAROV RUSTAM ZULFUKAROVICH**
“Markaziy Osiyo – Xitoy” formati xalqaro-huquqiy tartibga solinishi: evolyutsiyasi, shartnomaviy-huquqiy bazasi va hamkorlikning institutsional mexanizmlari
166 **SAYFULLAYEVA MAHBUBA AZIM QIZI**
Xalqaro moliya markazlarida ingliz huquqini joriy etish va qo‘llash modellari: qiyosiy-huquqiy tahlil
174 **XUDAYBERGANOVA NIGINA TO‘LQIN QIZI**
Maxsus missiyalar institutining tarixiy rivojlanishi

HUQUQNI SOHALARARO TADQIQ ETISH

185 **XADJAYEVA SAODAT ANVAROVNA**
Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlashda zamonaviy huquqiy va institutsional mexanizmlar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

11 **РАХМАНОВ АКМАЛ ЭРГАШЕВИЧ**
Конституционно-правовые обязанности государства по обеспечению основных прав и свобод человека: содержание, виды и критерии реализации

22 **АБДУРАЙИМОВ МУХАММАД СУВАНКУЛ УГЛИ**
Цифровизация адвокатской деятельности и гарантии сохранения адвокатской тайны

30 **АЛЛАМБАЕВ ЖАВЛОНБЕК РУСТАМОВИЧ**
Совершенствование системы производства по делам об административных правонарушениях в таможенных органах

38 **АСЛОНОВА НАФИСА ОЛИМОВНА**
Презумпция добросовестности субъектов предпринимательства как процессуальная гарантия судебной защиты экономических прав

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

52 **ТУРДИАЛИЕВ МУХАММАД АЛИ ПУЛАТЖОН УГЛИ**
Перспективы совершенствования таможенного законодательства Республики Узбекистан в связи с внедрением технологий искусственного интеллекта

63 **КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА, КАЮМОВА АСАЛЯ СУЛТОНМУРОДОВНА**
Венчурные и прямые инвестиции (private equity): сравнительный анализ правового регулирования и договорных конструкций

74 **АБДУСАМАТОВ НУРУЛЛО КОБИЛЖОН УГЛИ**
Цифровое имущество как объект гражданских прав

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

82 **СОБИТОВА УМИДАХОН МУРОД КИЗИ**
Роль прокуратуры в предупреждении коррупции в сфере здравоохранения

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

92 **УТАЕВ ХУСНИДДИН ХУРРАМОВИЧ**
Уголовно-правовые критерии разграничения имущественных посягательств в цифровой среде

101 **АББОСОВ МИРСУЛТОН МИРШАРОФ УГЛИ**
Проявление объективных признаков отдельных деяний, совершаемых с участием искусственного интеллекта

110 **НЕМАТИЛЛОЕВ БАХРОМ ВАХОБОВИЧ**
Теоретико-правовые основы совершенствования понятия «киберпреступление» в уголовном законодательстве Узбекистана

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

116 **ХАЛИЛОВ АКРАМ УТАМУРОДОВИЧ**
Место института судебной экспертизы в системе права и вопросы устранения коллизий в отраслевом законодательстве
123 **НОСИРОВ АМИРХОН БАХОДИР УГЛИ**
Криминалистические аспекты предмета доказывания по делам о мошенничестве, совершённом с использованием информационных технологий

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

130 **ЮНУСОВ ХАЙДАРАЛИ МУРАТОВИЧ**
Региональные механизмы и процедуры обеспечения права на обращение в международные органы
143 **МУСАЕВ ДЖАМАЛИДДИН КАМАЛОВИЧ**
Борьба с незаконным оборотом наркотических средств: тенденции развития международно-правового сотрудничества
154 **УМАРОВ РУСТАМ ЗУЛЬФУКАРОВИЧ**
Международно-правовое регулирование формата «Центральная Азия – Китай»: эволюция, договорно-правовая база и институциональные механизмы сотрудничества
166 **САЙФУЛЛАЕВА МАХБУБА АЗИМ КИЗИ**
Модели внедрения и применения английского права в международных финансовых центрах: сравнительно-правовой анализ
174 **ХУДАЙБЕРГАНОВА НИГИНА ТУЛКИН КИЗИ**
Историческое развитие института специальных миссий

МЕЖОТРАСЛЕВОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРАВА

185 **ХАДЖАЕВА САОДАТ АНВАРОВНА**
Современные правовые и институциональные механизмы подготовки научных кадров нового поколения

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

11 **RAKHMANOV AKMAL ERGASHEVICH**
Constitutional-legal obligations of the state in ensuring fundamental human rights and freedoms: content, types, and criteria for implementation
22 **ABDURAYIMOV MUKHAMMAD SUVANKUL UGLI**
Digitalization of advocacy activities and guarantees for maintaining advocacy confidentiality
30 **ALLAMBAEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**
Improving the system of administrative offense proceedings in customs authorities
38 **ASLONOVA NAFISA OLIMOVNA**
The presumption of good faith of business entities as a procedural guarantee for the judicial protection of economic rights

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

52 **TURDIALIEV MUHAMMAD ALI PULATJON UGLI**
Prospects for improving the customs legislation of the Republic of Uzbekistan in connection with the introduction of artificial intelligence technologies
63 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA, KAYUMOVA ASALYA SULTONMURODOVNA**
Venture capital investments vs private equity: differences in legal regulation and contractual structures
74 **ABDUSAMATOV NURULLO KOBILJON UGLI**
Digital property as an object of civil rights

12.00.07 – JUDICIAL BRANCH. PROSECUTOR'S CONTROL. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT. ADVOCACY

82 **SOBITOVA UMIDAKHON MUROD KIZI**
The role of the prosecutor's office in preventing corruption in the healthcare sector

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

92 **UTAEV KHUSNIDDIN KHURRAMOVICH**
Criminal law criteria for differentiating property offences in the digital environment
101 **ABBOSOV MIRSULTON MIRSHAROF UGLI**
Manifestation of the objective elements of certain acts committed with the participation of artificial intelligence
110 **NEMATILLOEV BAKHROM VAXOBOVICH**
Theoretical and legal foundations for refining the concept of "cybercrime" in the criminal legislation of Uzbekistan

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

116 **KHALILOV AKRAM UTAMURODOVICH**
The place of the institute of forensic examination in the legal system and issues of eliminating collisions in sectoral legislation
123 **NOSIROV AMIRKHON BAHODIR UGLI**
Forensic aspects of the subject of proof in fraud crimes committed using information technologies

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

130 **YUNUSOV KHAYDARALI MURATOVICH**
Regional mechanisms and procedures for ensuring the right to apply to international bodies
143 **MUSAEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
Combating illicit drug trafficking: trends in the development of international legal cooperation
154 **UMAROV RUSTAM ZULFUKAROVICH**
International legal regulation of the “Central Asia–China” format: evolution, treaty framework, and institutional mechanisms of cooperation
166 **SAYFULLAEVA MAHBUBA AZIM KIZI**
Models for the introduction and application of english law in international financial centres: a comparative legal analysis
174 **KHUDAYBERGANOVA NIGINA TULQIN KIZI**
Historical development of the institution of special missions

INTERDISCIPLINARY STUDY OF LAW

185 **KHADJAEVA SAODAT ANVAROVNA**
Modern legal and institutional mechanisms for training a new generation of researchers

Kelib tushgan / Получено / Received: 28.07.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 06.10.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 21.10.2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65014
UDC: 341.231.145(045)(575.1)

XALQARO ORGANLARGA MUROJAAT QILISH HUQUQINI TA’MINLASHNING MINTAQAVIY MEXANIZMLARI VA TARTIB-TAOMILLARI

Yunusov Xaydarali Muratovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti
Tadqiqot markazi yetakchi ilmiy xodimi,
yuridik fanlar doktori
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-3945-3491
e-mail: yunusovkm@gmail.com

Annotatsiya*. Ushbu maqolada mintaqaviy tashkilotlarning inson huquqlariga ixtisoslashgan organlariga murojaat qilishning huquqiy asoslari va tartib-taomillari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mazkur huquqning mustahkamlangani va amaliyotda turli mexanizmlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash zarurati mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi umummintaqaviy, mintaqaosti va transmintaqaviy tuzilmalarning vakolatlari, murojaatni qabul qilish shartlari hamda samaradorligini qiyosiy baholashdan iborat. Qiyosiy-huquqiy, tizimli va institutsional-funksional metodlar orqali mintaqaviy mexanizmlarning murojaat qilish huquqini ta’minlashdagi ahamiyati, ularning yurisdiksiya chegarasi, o‘ziga xos xususiyatlari, umumiy va farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tildi. Tadqiqot natijalari xalqaro organlarga murojaat qilish huquqini tashkiliy-huquqiy jihatdan ta’minlashga oid milliy qonunchilikni takomillashtirishga hamda Osiyo va Markaziy Osiyoda inson huquqlarining mintaqaviy himoya tizimlarini shakllantirish istiqbollarini baholashga xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar*: inson huquqlari, murojaat qilish huquqi, mintaqaviy tashkilotlar, mintaqaviy mexanizmlar, tartib-taomillar, komissiya, sud, petitsiya, ombudsman, yurisdiksiya*

РЕГИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ И ПРОЦЕДУРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА ОБРАЩЕНИЕ В МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОРГАНЫ

Юнусов Хайдарали Муратович,
доктор юридических наук,
ведущий научный сотрудник Исследовательского центра
факультета международного права и сравнительного правоведения
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *В статье освещаются правовые основы и процедуры обращения в органы региональных организаций, специализирующиеся в области прав человека. Актуальность темы определяется закреплением указанного права в Конституции Республики Узбекистан в новой редакции и необходимостью выявления различий между механизмами его реализации на практике. Цель исследования заключается в сравнительной оценке полномочий*

общерегиональных, субрегиональных и трансрегиональных структур, условий приемлемости обращений и эффективности деятельности указанных структур. С применением сравнительно-правового, системного и институционально-функционального методов показано значение региональных механизмов в обеспечении права на обращение, раскрыты пределы их юрисдикции, особенности, общие черты и различия. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования национального законодательства в сфере организационно-правового обеспечения права на обращение в международные органы, а также для оценки перспектив формирования региональных систем защиты прав человека в Азии и Центральной Азии.

Ключевые слова: *права человека, право на обращение, региональные организации, региональные механизмы, процедуры, комиссия, суд, петиция, омбудсмен, юрисдикция*

REGIONAL MECHANISMS AND PROCEDURES FOR ENSURING THE RIGHT TO APPLY TO INTERNATIONAL BODIES

Yunusov Khaydarali Muratovich,
Leading Research Fellow at the Research Centre,
Faculty of International Law and Comparative Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. *This article examines the legal foundations and procedures for submitting applications to human rights bodies of regional organizations. The relevance of the study is determined by the enshrinement of this right in the revised Constitution of the Republic of Uzbekistan and the need to identify differences among the various mechanisms in practice. The aim of the research is to comparatively assess the mandates, admissibility requirements, and effectiveness of pan-regional, subregional, and transregional institutions. Using comparative legal, systemic, and institutional-functional methods, the study highlights the significance of regional mechanisms in ensuring the right to apply to international bodies, their jurisdictional limits, specific characteristics, similarities, and differences. The findings may contribute to improving national legislation governing the organizational and legal framework for exercising the right to apply to international bodies, as well as assessing the prospects for establishing regional human rights protection systems in Asia and Central Asia.*

Keywords: *human rights, right to apply to international bodies, regional organizations, regional mechanisms, procedures, commission, court, petition, ombudsman, jurisdiction*

Kirish

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiq, har bir inson o‘z huquqini himoya qilish yoki buzilgan huquqlarini tiklash uchun nafaqat davlat idoralari va mansabdor shaxslarga, balki xalqaro tashkilotlarning organlariga ham murojaat qilish huquqiga ega. Jismoniy shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilishi milliy qonunchilikda va inson huquqlarini himoyalovchi xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Xususan, 2023-yil 1-mayda kuchga kirgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasini dalil qilib ko‘rsatishimiz o‘rinli. Mazkur institut milliy huquqiy ta’lim, fan va tadqiqot, huquqni qo‘llash amaliyoti va fuqarolarga huquqiy yordam ko‘rsatish nuqtayi nazaridan dolzarb masalaga aylantirdi (Republic of Uzbekistan, 2023).

Shuningdek, bugungi kunda migratsiya, transchegaraviy mehnat munosabatlari, ta’lim, investitsiya va raqamli xizmatlar ko‘lamining kengayishi bir shaxsning bir vaqtning o‘zida bir nechta huquqiy makon bilan bog‘lanishiga olib kelmoqda. Shu sa-

babli O‘zbekiston fuqarosi Yevropa, Amerika yoki Afrika mintaqasida bo‘lib turgan paytida tegishli davlat yurisdiksiyasi ostida huquqbuzarlikka duch kelishi hamda buzilgan huquqlarini tiklash maqsadida universal yoki mintaqaviy organlarga murojaat qilishi mumkin. Biroq tadqiqotning asosiy masalasi shundaki, amalda “mintaqaviy mexanizm” deb ataluvchi tuzilmalarning barchasi ham shaxsning individual murojaatini ko‘rib chiqishga vakolatli emas. Sud, komissiya, ombudsman, parlament qo‘mitasi va boshqa turdagi monitoring organlarining vakolati hamda qarorlarining yuridik tabiati mintaqalar kesimida o‘zaro farq qiladi. Shuning uchun mintaqaviy mexanizmlarning geografik tasnifini ularning protsessual-funksional tavsifi bilan to‘ldirish zarur.

Tadqiqotning maqsadi inson huquqlari bo‘yicha mintaqaviy (umummintaqaviy, mintaqaosti va mintaqalararo) organlarga murojaat qilishning huquqiy asoslari, subyektlari, murojaatni qabul qilish shartlari, ko‘rib chiqish bosqichlari va natijalarini yagona qiyosiy yondashuv asosida baholash, shu orqali murojaat huquqini ta’minlashning real samaradorligini belgilovchi mezonlarni aniqlashdan iborat. Mintaqaviy mexanizmlarning huquqiy va institutsional asoslarini qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, murojaat qilish huquqini ta’minlashning institutsional-protsessual modellarini tizimlashtirish tadqiqotning asosiy vazifalarini tashkil etadi.

Xalqaro organlarga murojaat qilish huquqining mintaqaviy mexanizmlariga oid tadqiqotlar oxirgi o‘n yilliklarda sezilarli darajada jadallashdi. Amerikalik huquqshunos olima D. Shelton (2013) mintaqaviy tizimlarni mustaqil huquqiy tartibotlar sifatida tahlil qiladi. A. Xuneus o‘z tadqiqotlarida Yevropa, Amerika va Afrika tizimlarining shakllanish jarayoni va sud madaniyati turlicha ekanini ko‘rsatadi (Huneeus, 2018). F. Viljoen (2012) Afrika inson huquqlari himoya arxitekturasini BMT, Afrika Ittifoqi va mintaqaosti sudlaridan iborat ko‘p darajali tarmoq sifatida baholaydi. G. Ulfsteyn (2012) esa individual murojaatni davlatlararo shikoyatdan samaraliroq deb hisoblaydi.

Mazkur tadqiqot ushbu yondashuvlarni ikki jihatdan rivojlantiradi. Birinchidan, umummintaqaviy, mintaqaosti va transmintaqaviy tasnif murojaatlarni ko‘rib chiquvchi institutlarning protsessual imkoniyatlarini to‘liq ifodalamasligi asoslantirildi. Ikkinchidan, mintaqaviy mexanizmlarning samaradorlik darajasi murojaatni qabul qilish, shoshilinch himoya, ishning davomiyligi, ijro nazorati va institutsional muloqot natijalari bilan birgalikda baholanishi lozimligi ko‘rsatildi. Bundan tashqari, mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi barcha tizimlarga nisbatan yaxlit holatda bir xil funksional baholash qoidalarini qo‘llash va ularning qiyosiy samaradorligini aniqlashda namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism

Murojaatlarni ko‘rib chiqishning mintaqaviy mexanizmlari muayyan mintaqa doirasida shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarning inson huquqlari buzilishi yuzasidan murojaatlarini vakolatli sudlov yoki nosudlov organlari tomonidan qabul qilish, maqbulligini tekshirish, mazmunan ko‘rib chiqish, tegishli qaror yoki tavsiyalar chiqarish hamda ularning ijrosini nazorat qilishga qaratilgan institutsional va protsessual vositalar tizimidir. Mintaqaviy mexanizmlar, asosan, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi muayyan institutsional tuzilmalarni anglatadi. Mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning geografik ko‘lamiga mos ravishda mintaqaviy mexanizmlar umummintaqaviy, mintaqaosti va mintaqalararo (transmintaqaviy) turlarga ajratiladi. Yevropa Kengashi, Amerika davlatlari tashkiloti va Afrika Ittifoqi doirasidagi tizimlar – umummintaqaviy; G‘arbiy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati (ECOWAS), Arab davlatlari ligasi va Yevropa Ittifoqi doirasidagi institutlar – mintaqaosti; Islom hamkorlik tashkiloti esa – a’zolari bir nechta qit’ada

joylashgan transmintaqaviy tuzilmaga misol bo‘ladi.

Mintaqaviy inson huquqlari mexanizmlari funksional xususiyatiga ko‘ra sudlov va nosudlov mexanizmlariga turkumlanadi. Sudlov mexanizmlari huquqbuzarliklar yuzasidan yuridik majburiy qarorlar qabul qiluvchi mintaqaviy sudlardan iborat bo‘lsa, nosudlov mexanizmlari kvazisudlov, monitoring, maslahat, tavsiya berish funksiyalarini amalga oshiruvchi organlarni qamrab oladi.

Biroq, ularning barchasi ham individual murojaatlarni qabul qilish va hal etishda to‘liq vakolatga ega emas. Shu sababli muayyan tuzilmaning murojaat mexanizmi sifatidagi maqomi uning ta’sis hujjatlari, yurisdiksiyasi va protsessual vakolatlari asosida aniqlashtiriladi.

Shu maqsadda tadqiqotning formal-yuridik usuli ta’sis shartnomalari, xartiyalar, protokollar va protsessual reglamentlarda aks ettirilgan vakolat doirasi hamda murojaatni qabul qilish shartlarini aniqlash uchun qo‘llanildi. Qiyosiy-huquqiy usul murojaat subyekti, mintaqaviy organning subyektga daxldorlik, hududiy daxldorlik, vaqtga daxldorlik va predmetga daxldorlik (ratione personae, ratione loci, ratione temporis, ratione materiae) yurisdiksiyasi, ichki vositalarni tugatish, shikoyatni ko‘rib chiqish muddati, vaqtinchalik chora va qaror ijrosini bir xil matritsada taqqoslash imkonini berdi. Tizimli usul – milliy, mintaqaviy va universal mexanizmlarni ko‘p darajali himoya tarmog‘i sifatida baholashda, institutsional-funksional usul – mintaqaviy organning amaldagi funksiyasini ochib berishda ishlatildi.

Xalqaro organlarga murojaat qilish huquqining mintaqaviy mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish ularning samaradorligini baholash imkonini beradi. Eng yaxshi tajribalarni umumlashtirish va o‘zaro almashish mintaqaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi hamda Osiyo va Markaziy Osiyo mintaqasida ana shunday mexanizmlarning shakllanish istiqbollarini belgilashda qo‘l keladi. Shu bois quyida, dastavval, murojaat qilish huquqi bo‘yicha mintaqaviy tizimlarning har biriga qisqacha tavsif beriladi, so‘ng qiyosiy tahlil va uning natijalariga o‘tiladi.

Afrika umummintaqaviy va mintaqaosti mexanizmlari. Afrika qit’asida Afrika Ittifoqi (2002-yilgacha Afrika Birligi Tashkiloti)ga a’zo davlatlar tomonidan 1981-yil 27-iyunda Keniyaning Nayrobi shahrida “Inson va xalqlar huquqlari to‘g‘risidagi xartiya” qabul qilingan bo‘lib, mazkur xartiya 1986-yil 21-oktabrda kuchga kirgan. “Afrika xartiyasi” yoki “Banjul xartiyasi” nomi bilan yuritiladigan ushbu hujjatni hozirgi kunda Janubiy Sudanni istisno qilganda Afrika Ittifoqining 54 ta a’zo davlati to‘liq ratifikatsiya qilgan.

Afrika mintaqaviy tizimida murojaat, xabar, ariza, shikoyat ma’nosida “kommunikatsiya” atamasi ishlatiladi. Xartiyaning 55-56-moddalari Afrika Inson va xalqlar huquqlari komissiyasiga (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) murojaat qilish huquqini amalga oshirish talablarini belgilaydi (Organization of African Unity, 1981). Kommunikatsiyada muallifning ko‘rsatilishi, matnning davlat va uning institutlariga nisbatan haqoratli yoki kamsituvchi tilda yozilmasligi, murojaat mazmuni Afrika xartiyasi va Afrika Ittifoqi tashkiloti prinsiplariga muvofiq bo‘lishi, faqat ommaviy axborot vositalari ma’lumotlariga asoslanmasligi, uning milliy huquqiy himoya vositalari tugatilganidan keyin berilishi, milliy vositalar tugaganidan so‘ng oqilona muddat ichida taqdim etilishi, boshqa xalqaro tartib asosida uzil-kesil hal qilingan ishning takrori bo‘lmasligi kabi shartlar shular jumlasidandir. Shikoyatlar yoki murojaatlar davlatdan boshqa har qanday tuzilmalar, uyushmalar, jismoniy yoki yuridik shaxslar, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) tomonidan berilishi mumkin.

Afrika komissiyasi tomonidan murojaatni ko‘rib chiqish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: kommunikatsiyani kotibiyatga taqdim etish – komissiyaning ishni o‘z ish

yurituviga olishi (*seizure)* masalasini hal qilishi – kommunikatsiyaning qabul qilinishiga oid taraflarning fikrlarini olish – qabul qilinishi to‘g‘risida qaror chiqarish – ishning mohiyati bo‘yicha yozma materiallarni ko‘rib chiqish – zarur bo‘lsa, eshituv o‘tkazish yoki do‘stona kelishuvga ko‘maklashish – xartiyadagi huquqlar buzilgan yoki buzilmagani haqida xulosa va javobgar davlatga tavsiyalar berish – tavsiyalarning bajarilishini kuzatish – tavsiyalar bajarilmagan taqdirda ishni sudga yuborish. Shu tarzda komissiyaning himoya vakolati kommunikatsiyalar, do‘stona kelishuvlar, faktlarni aniqlash missiyalari, shoshilinch choralar va maxsus ma’ruzachilar faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi.

Komissiyaga yuborilgan bir yoki bir nechta xabarlar inson va xalq huquqlarining jiddiy yoki ommaviy buzilishi mavjudligidan dalolat bersa, komissiya bundan Afrika Ittifoqining eng oliy siyosiy organi – Davlat va hukumat rahbarlari assambleyasini xabardor qiladi. Keyinchalik Davlat va hukumat rahbarlari assambleyasi komissiyadan vaziyatni mustaqil ravishda o‘rganib chiqishni so‘rashi mumkin. Bundan tashqari, zaruratga qarab maxsus ma’ruzachilar, ishchi guruhlar, inson huquqlariga oid muayyan masalalar bo‘yicha hisobotlarni topshirish va tekshirish vakolatiga ega qo‘mitalar shaklidagi bir nechta maxsus mexanizmlar ham ishga solinadi. Yakuniy natija sifatida komissiya tavsiyalar va vaqtinchalik choralar qabul qilishi yoki ayrim ishlarni Afrika sudiga yuborishi mumkin.

Afrika Inson va xalqlar huquqlari sudi Afrika xartiyasiga qo‘shimcha sifatida 1998-yil 10-iyunda Uagadugu (Burkina-Faso)da qabul qilingan protokolga muvofiq tashkil etilgan (Organization of African Unity, 1998). Protokol 15 dan ortiq mamlakat tomonidan ratifikatsiya qilinganidan keyin 2004-yil 25-yanvarda kuchga kirdi.

Sud qarorlari, komissiya tavsiyalaridan farqli o‘laroq, tomonlar uchun majburiy, ammo sudning yurisdiksiyasini tan olish ixtiyoriydir. Aniqroq qilib aytganda, jismoniy va yuridik shaxslarning shikoyatlari javobgar davlat sudning shikoyatlarni ko‘rib chiqish vakolatini qabul qilgan taqdirdagina muhokama qilinadi. Buning uchun javobgar davlat Afrika sudini tashkil etish to‘g‘risidagi protokolni ratifikatsiya qilgan hamda Protokolning 34-moddasi 6-bandi bo‘yicha maxsus deklaratsiya taqdim etgan bo‘lishi kerak. 2026-yil holatiga ko‘ra, protokolning ishtirokchi davlatlaridan 8 tasigina, ya’ni Burkina-Faso, Gambiya, Gana, Gvineya-Bisau, Mali, Malavi, Niger va Tunis jismoniy shaxslar hamda NNTlar tomonidan beriladigan shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha Sudning vakolatini tan olganligi yuzasidan bayonot bergan. Maxsus deklaratsiya orqali sudning vakolatini tan olmagan davlatga nisbatan shaxs, odatda, avval Afrika komissiyasiga murojaat qilishi lozim bo‘ladi. Komissiya ishni sudga olib chiqish masalasini hal qilishi mumkin. Sud, shuningdek, protokolning 4-moddasidan kelib chiqib, Afrika xartiyasi hamda ishtirokchi davlatlar uchun majburiy bo‘lgan inson huquqlariga oid boshqa xalqaro hujjatlarni sharhlash yuzasidan maslahat xulosalarini berish va milliy qonunchilikning ushbu hujjatlarga muvofiqligini baholash vakolatiga ham ega.

Murojaatni qabul qilish shartlari sifatida Afrika sudi ham, asosan, Afrika xartiyasining 56-moddasi mezonlarini qo‘llaydi. Ishni ko‘rish jarayonida sud faqatgina Afrika xartiyasini emas, balki javobgar davlat ratifikatsiya qilgan boshqa inson huquqlari shartnomalarini ham qo‘llashi mumkin.

Afrika sudi tomonidan murojaatni ko‘rib chiqish jarayoni quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: arizani Sud reyestriga taqdim etish – yurisdiksiyani tekshirish – arizaning qabul qilinishini ko‘rib chiqish – javobgar davlatning yozma e’tirozlarini ko‘rib chiqish – dastlabki e’tirozlar, ishning mohiyati va reparatsiya masalalarini ko‘rib chiqish – zarur hollarda ochiq sud eshituvini o‘tkazish – huquqbuzarlik va reparatsiya to‘g‘risida qaror chiqarish. Sud o‘ta og‘ir va shoshilinch

vaziyatda shaxsga tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazilishining oldini olish uchun vaqtinchalik choralar belgilashi mumkin.

Fikrimizcha, murojaat qilish huquqini ta’minlash sohasida Afrika mintaqaviy mexanizmining kamchiliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, Afrika sudining hududiy yurisdiksiyasi juda cheklangan bo‘lib, uning vakolatini tan olgan 8 ta davlatdagina amal qiladi. Afrika Ittifoqining qolgan 47 ta a’zo davlatida individning murojaat qilish huquqi sud orqali himoya qilinishi ta’minlanmagan; ikkinchidan, Afrika komissiyasi yoki sudiga murojaat qilishda “oqilona muddat” mezoni aniq belgilanmagan, ya’ni murojaat ichki milliy himoya vositalari bilan bog‘liq jarayon tugaganidan so‘ng qandaydir “oqilona muddat” ichida taqdim etilishi lozim. “Oqilona muddat”ning aniq raqamlar bilan ko‘rsatilmaganligi murojaatlarni qabul qilishda turli sun’iy to‘siqlarni vujudga keltirishi mumkin; uchinchidan, sudga murojaat qilish huquqi subyektlari doirasi komissiya, davlatlar, ayrim hollarda shaxs va NNTlarni o‘z ichiga olsa-da, davlatlarning Sudga murojaat qilish amaliyoti juda kam uchraydi. Bu esa xalqaro huquqning asosiy subyekti hisoblangan davlatlarning inson huquqlari himoyasi sohasidagi ishtirokining sustligini namoyon etadi.

Afrika umummintaqaviy mexanizmlari bilan bir qatorda mintaqaosti tuzilmalari ham inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynamoqda. ECOWAS sudi buning eng yaqqol namunasidir. 2005-yilda qabul qilingan Qo‘shimcha protokoldan so‘ng jismoniy shaxslarga inson huquqlari buzilishi to‘g‘risida Sudga bevosita murojaat qilish huquqi berilgan. Ushbu sudga murojaat qilishda inson huquqlari bo‘yicha ishlar yuzasidan avval ichki huquqiy himoya vositalaridan foydalanib bo‘lganlik sharti talab etilmaydi (Economic Community of West African States, 2005).

Boshqa mintaqaviy tizimlar bilan taqqoslaganda, Afrika tizimi o‘zining bir qator ijobiy xususiyatlarini namoyish etadi. Avvalo, Afrika Inson va xalqlar huquqlari komissiyasi va sudi faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi Inson va xalqlar huquqlari to‘g‘risidagi Banjul xartiyasi inson va xalqlarning juda keng doiradagi huquq va erkinliklarini qamrab oladi hamda ularni amaliy himoya mexanizmlari bilan ta’minlaydi. Murojaat qilish tartib-taomillari nuqtayi nazaridan esa murojaat qiluvchi huquqbuzarlikning bevosita jabrlanuvchisi bo‘lishi shart emas. NNT yoki boshqa shaxslar jabrlanuvchi nomidan komissiya va sudga kommunikatsiya kiritishi mumkin. Shu jihati bilan Afrika mintaqaviy mexanizmi Yevropa inson huquqlari tizimidan farq qiladi. Individlarning sudga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish huquqining ta’minlanganligi esa uni Amerika mintaqaviy tizimidan ajratib turadi.

Amerika mintaqaviy mexanizmi. Amerika qit’asida inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha mintaqaviy tizim o‘ziga xos yaxlit xususiyatga ega bo‘lib, boshqa mintaqalardagi kabi umummintaqaviy va mintaqaosti turlarga ajratilmaydi. Amerika tizimi “Amerika davlatlari tashkiloti nizomi” (Organization of American States, 1948) va “Inson huquqlari bo‘yicha Amerika konvensiyasi” yoki San-Xose pakti (Organization of American States, 1969) kabi hujjatlar negizida barpo etilgan. Nizomga asoslangan tizim Amerika davlatlari tashkiloti (ADT)ga a’zo barcha davlatlarga tegishli bo‘lsa, San-Xose pakti faqat konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlar uchun majburiydir.

1969-yilda qabul qilingan va 1978-yilda kuchga kirgan San-Xose pakti, dastavval, faqatgina fuqarolik va siyosiy huquqlarni o‘z ichiga olgan edi. Keyinchalik u 1988-yilda qabul qilingan va 1999-yilda kuchga kirgan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘shimcha protokol yoki “San-salvador protokoli” (Organization of American States, 1988) bilan to‘ldirildi. Inson huquqlari sohasida yana bir muhim hujjat – “Inson huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risidagi

Amerika deklaratsiyasi" (Ninth International Conference of American States, 1948) ham Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi (San-Xose Pakti)ni mazmunan to'ldirib keladi. Mazkur to'rt hujjat birgalikda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Amerika mintaqaviy tizimining normativ asosini tashkil etadi.

Inson huquqlari bo'yicha Amerika davlatlararo komissiyasi (Inter-American Commission on Human Rights) va Inson huquqlari bo'yicha Amerika davlatlararo sudi (Inter-American Court of Human Rights) murojaat qilish huquqini ta'minlashda Amerika mintaqaviy tizimining institutsional tayanchi hisoblanadi.

Vashington shahrida joylashgan komissiya yetti a'zodan iborat bo'lib, ular ADT Bosh Assambleyasi tomonidan to'rt yil muddatga saylanadi. Odatda, Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasiga qo'shilgan har bir davlat komissiyaning vakolatini tan olish bo'yicha bayonot beradi. Shu asosdagina komissiya ushbu davlatga nisbatan konvensiyaning boshqa a'zo davlati yoki tashkilotning bitta yoki bir nechta davlatida ro'yxatga olingan NNTlar yoxud individ va individlar guruhi tomonidan topshirilgan petitsiya yoki kommunikatsiya (*petition or communication*) ni qabul qilishga haqli (Organization of American States, 1969, Art. 44, 45, 46).

Demak, har qanday shaxs, shaxslar guruhi va Amerika davlatlaridan birida qonuniy ro'yxatdan o'tgan NNTlar murojaat qilish huquqining subyektlaridir. Murojaatchining o'zi jabrlanuvchi bo'lishi shart emas, u boshqa shaxs yoki shaxslar guruhi nomidan ham petitsiya berish huquqiga ega. Petitsiya Amerika davlatlari tashkilotiga a'zo davlatga qarshi beriladi.

Komissiya shikoyatlarni qabul qilishi, ularni do'stona hal qilish vositalarini ishga solishi yoxud muhokamadagi ishlarning mohiyatiga oid majburiy bo'lmagan tavsiyalar shaklidagi xulosalarni e'lon qilishi mumkin.

Komissiya tomonidan murojaatni qabul qilish shartlari Afrika komissiyasining talablari bilan deyarli bir xil. Odatda, huquqbuzarlikni bartaraf etishga mas'ul milliy sud vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lishi kerak. Agar milliy qonunchilikda tegishli huquqiy vosita bo'lmasa, shaxsning milliy sud vositalaridan foydalanishiga yo'l qo'yilmasa, ishni ko'rish asossiz cho'zilsa yoki ichki himoya vositalari amalda samarasiz bo'lsa, ushbu qoida istisno qilinadi.

Petitsiya yakuniy ichki (milliy) qaror haqida xabar berilgan sanadan boshlab olti oy ichida taqdim etilishi lozim. Milliy vositalarni tugatish talabi istisno qilingan holatda, Komissiya vaziyatdan kelib chiqib murojaatning "oqilona muddat" ichida berilganini baholaydi. Xuddi shu ish boshqa xalqaro organda ko'rib chiqilayotgan yoki boshqa xalqaro organ tomonidan muqaddam mohiyatan hal qilingan bo'lmasligi kerak. Shuningdek, ishda prima facie huquqbuzarlik mavjud bo'lishi, ya'ni petitsiyada keltirilgan faktlar isbotlangan taqdirda, ular Amerika inson huquqlari hujjatlaridan biridagi normaning buzilishiga asos bo'lishi lozim.

Konvensiyaning 48–50-moddalari murojaat qilish huquqining tartib-taomillarini belgilaydi. Ularga ko'ra, komissiya tomonidan petitsiyani ko'rib chiqish bosqichlari quyidagi jarayonlar zanjiridan iborat: petitsiyani elektron portal yoki boshqa belgilangan usulda taqdim etish – dastlabki o'rganish – petitsiyani javobgar davlatga yuborish – petitsiyaning qabul qilinishi masalasini ko'rib chiqish – qabul qilinishi to'g'risida hisobot tayyorlash – ishning mohiyati bo'yicha taraflarning fikr va dalillarini eshitish – do'stona kelishuvga erishish imkoniyatidan foydalanish yoki foydalanmaslik – huquqbuzarlik aniqlansa, davlatga tavsiyalar berish – tavsiyalar bajarilmagan taqdirda, tegishli shartlar asosida ishni Amerika sudiga yuborish.

Jiddiy va shoshilinch vaziyatda tuzatib bo'lmaydigan zarar xavfi mavjud bo'lsa, komissiya davlatdan ehtiyot choralarini ko'rishni so'rashi mumkin. Buning uchun petitsiyaning qabul qilinishi haqida qaror chiqa-

rilgan bo‘lishi talab etilmaydi. Ishni Amerika komissiyasida ko‘rish bosqichida advokat yollash shart emas va petitsiya berish uchun yig‘im undirilmaydi. Petitsiyalar Komissiyaning individual petitsiyalar tizimi portali orqali ispan, portugal, ingliz va fransuz tillarida topshirilishi mumkin (Organization of American States, 2026).

Inson huquqlari bo‘yicha Amerika davlatlararo sudi (Inter-American Court of Human Rights, I/A Court H.R.) Amerika mintaqasida inson huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan mustaqil xalqaro sud organidir. 1969-yilgi Inson huquqlari bo‘yicha Amerika konvensiyasi (“San-Xose pakti”) Sud faoliyatining huquqiy asosini tashkil etadi va uning yurisdiksiyasi chegaralarini belgilaydi. Sudning birinchi sudyalari 1979-yil 22-mayda saylangan, uning rasmiy ta’sis marosimi esa 1979-yil 3-sentyabrda Kosta-Rikaning San-Xose shahrida o‘tkazilgan. Hozirgi kunda Amerika davlatlari tashkilotiga a’zo 35 davlatdan 23 tasi konvensiyaning ishtirokchi davlatlari hisoblanib, ularning 20 tasi sudning vakolatini tan olgan.

Jismoniy shaxslar yoki nodavlat notijorat tashkilotlari sudga to‘g‘ridan to‘g‘ri da’vo kirita olmaydi. Ular dastlab Amerika davlatlararo komissiyasiga petitsiya bilan murojaat qiladi. Ishni Sudga komissiya yoki konvensiyaning ishtirokchi davlati taqdim etishi mumkin. Konvensiyaning 48- va 50-moddalarida ko‘zda tutilgan vositalar qo‘llanib bo‘lingach hamda javobgar davlat bilan do‘stona yechimga erishilmagan taqdirda buni faqat manfaatdor a’zo davlat(lar) yoki komissiya amalga oshirish vakolatiga ega (Organization of American States, 1969). Aynan shu xususiyati bilan murojaat qilish huquqining Amerika mintaqaviy mexanizmi Afrika va Yevropa mintaqaviy mexanizmlaridan farq qiladi. Ya’ni Amerika tizimida individlar komissiya bosqichini chetlab o‘tib, sudga to‘g‘ridan to‘g‘ri ariza bera olmaydi (Inter-American Commission on Human Rights, 2022). Bu esa inson huquqlarini himoya qilish institutlari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga ziddir, chunki odatda murojaat qilish huquqining samaradorligi individning shaxsiy manfaatdorligiga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, davlat ham, jamoat tashkilotlari ham individning huquqlarini himoya qilishdan uning o‘zichalik manfaatdor emas. Fikrimizcha, ushbu holat Amerika tizimining eng zaif nuqtasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Sud tomonidan ishni ko‘rib chiqish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi: Komissiya tomonidan ishni Sudga taqdim etish – jabrlanuvchi yoki uning vakillari tomonidan da’vo va dalillarning taqdim qilinishi – javobgar davlatning javobi va dastlabki e’tirozlari – yozma shaklda ish yuritish – og‘zaki eshituv – dalillarni baholash – ishni mohiyatan ko‘rib chiqish – reparatsiyalar va xarajatlar bo‘yicha qaror.

Sud qarorlari majburiy bo‘lib, kompensatsiya, tergov o‘tkazish, qonunchilikni o‘zgartirish, jabrlanuvchining huquqlarini tiklash va javobgar davlatdan huquqbuzarlikni takrorlamaslik kafolatlarini talab qilish kabi keng ta’sir choralarini belgilashi mumkin. Amaliyotda Sudga murojaat qilingan ko‘p hollarda davlatlar inson huquqlarining qo‘pol va tizimli ravishda buzilishi (jumladan, qiynoqlar, asossiz qatl qilish va o‘z erkiga zid tarzda bedarak yo‘qolish) uchun javobgarlikka tortilgan bo‘lib, ular qurbonlar va ularning oilalariga yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha moddiy javobgarlikdan tashqari, bunday holatlar takrorlanmasligiga kafolat berishgan.

Islom mintaqalararo (transmintaqaviy) va mintaqaosti mexanizmlari. Islom dunyosida murojaatlar bilan shug‘ullanuvchi alohida mintaqaviy sudlov va nosudlov mexanizmlar hali shakllanmagan bo‘lsa-da, oxirgi yillarda inson huquqlari sohasida katta ijobiy siljishlar kuzatildi. Xususan, 2011-yilda Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)ning Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasi ta’sis etildi (Organisation of Islamic Cooperation, 2011).

Mazkur komissiya 18 a’zodan iborat bo‘lib, individual shikoyat va murojaatlarni qabul qilmasa-da, maslahatlashuv va muvofiqlashtirish orqali Islom hamkorlik tashkilotining a’zo davlatlari, fuqarolik jamiyati institutlari va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro mexanizmlar o‘rtasida inson huquqlari sohasida hamkorlikni rivojlantirishga intiladi.

Arab islom mintaqasida inson huquqlariga oid birinchi hujjat – “Inson huquqlari bo‘yicha Arab xartiyasi” 1994-yil sentyabrida Arab davlatlari ligasi doirasida qabul qilingan bo‘lsa-da, tashkilotning birorta a’zo davlati tomonidan ratifikatsiya qilinmagan edi (League of Arab States, 1994). Shundan so‘ng, BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi tomonidan inson huquqlari bo‘yicha ekspertlardan iborat guruh tuzilib, Xartiyani yangilash jarayoni qo‘llab-quvvatlandi. Natijada 2004-yil 23-mayda Arab davlatlari ligasi tomonidan uning yangi tahriri qabul qilindi va 2008-yil 15-martda kuchga kirdi (League of Arab States, 2004).

Yangi tahrirdagi Xartiyaga muvofiq, “Arab xartiyasi”ning amalga oshirilishini davlatlar taqdim etadigan hisobotlar orqali monitoring qilish uchun Inson huquqlari bo‘yicha Qo‘mita ta’sis etilgan bo‘lib, u Arab davlatlari ligasi kengashiga o‘zining tavsiyalarini taqdim etadi. Garchi individual shikoyatlarni qabul qilish huquqiga ega bo‘lmasa-da, inson huquqlari bo‘yicha yetti nafar ekspertdan iborat Qo‘mita BMTning Inson huquqlari qo‘mitasi usuliga o‘xshash tartibda faoliyat olib bormoqda. “Arab xartiyasi”ning 52-moddasida kelgusida Xartiyaga qo‘shimcha hujjat sifatida shaxsiy shikoyat yo‘llash mexanizmini yaratishni ko‘zda tutuvchi protokol qabul qilish imkoniyati belgilab qo‘yilgan.

Yevropa umummintaqaviy va mintaqaosti mexanizmlari. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa umummintaqaviy tizimi Ikkinchi jahon urushidan so‘ng 1949-yilda tashkil etilgan eng katta mintaqaviy tashkilot – Yevropa Kengashi atrofida mujassamlashgan. Kengash doirasida ishlab chiqilgan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya 1950-yil 4-noyabrda Rim shahrida imzolangan va 1953-yil 3-sentabrda kuchga kirgan (Council of Europe, 1950). Hozirgi vaqtda Yevropa Kengashining 46 a’zo davlati Konvensiya ishtirokchisidir. Yevropa konvensiyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e’lon qilingan muayyan huquqlarni yuridik majburiy xalqaro normalarga aylantirgan birinchi mintaqaviy shartnoma hisoblanadi.

Hozirga qadar Konvensiya 16 ta qo‘shimcha protokol bilan to‘ldirildi. Mazkur protokollar konvensiyada himoya ostiga olingan inson huquqlari katalogini sezilarli darajada kengaytirdi va uni zamon talablariga moslashtirishda muhim rol o‘ynadi.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasiga rioya etilishini nazorat qiluvchi doimiy xalqaro sud organi hisoblanadi. 1998-yil 1-noyabrda kuchga kirgan 11-sonli protokol konvensiyaga asoslangan sud tizimini tubdan isloh qildi: doimiy faoliyat yurituvchi yagona Yevropa inson huquqlari sudini tashkil etdi, avvalgi Yevropa inson huquqlari komissiyasini tugatdi, shaxslarning Sudga bevosita murojaat qilish huquqini tizimning majburiy qismiga aylantirdi hamda Sudning yurisdiksiyasini barcha ishtirokchi davlatlar uchun majburiy etib belgiladi. Unga qadar shaxslarning individual murojaatlari dastlab Komissiyada ko‘rib chiqilar, ayrim ishlar keyinchalik Komissiya orqali Sudga yuborilar edi. Endilikda Yevropa sudi inson huquqlarini himoya qiluvchi yagona institutsional mexanizmga aylandi.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi shaxslarga davlat ustidan xalqaro sudga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish imkonini beruvchi eng rivojlangan mintaqaviy inson huquqlari mexanizmidir. Sud konvensiya ishtirokchisi bo‘lgan davlatlarga qarshi davlatlararo arizalarni ham qabul qiladi.

Yevropa konvensiyasining 34-35-modda-

lariga binoan, konvensiya va uning protokollarida ko‘zda tutilgan inson huquqlari buzilishining qurboni bo‘lganini da’vo qilgan har qanday shaxs, shaxslar guruhi yoki nodavlat notijorat tashkilotlari a’zo davlatlardagi inson huquqlarini himoya qilishga oid barcha ichki vositalardan foydalanib bo‘lingach, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudiga murojaat qilishlari mumkin (Council of Europe, 1950). Arizalar yakka sudya, uch sudyali qo‘mita, yetti sudyali palata va 17 sudyali Katta palata tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Murojaatni sud tomonidan ko‘rib chiqish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: arizani berish – dastlabki tekshiruv – sudlov tarkibiga taqsimlash (ariza yakka sudya, qo‘mita yoki palatalarga beriladi) – qabul qilinishini baholash (milliy huquqiy himoya vositalari tugatilgani, to‘rt oylik muddatga rioya qilingani tekshiriladi) – javobgar davlatga kommunikatsiya qilish (so‘rov jo‘natish) – do‘stona kelishuv – ishni mohiyatan ko‘rib chiqish – hukm va uni ijro etish.

Agar inson huquqlarining buzilish holatlari aniqlansa, sud javobgar davlatdan ziyon ko‘rgan tomonga yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilish vakolatiga ega. Uning qarorlari ishtirokchi davlatlar uchun yakuniy va majburiydir. Qarorlarning amalga oshirilishi esa Yevropa Kengashining eng oliy siyosiy organi bo‘lgan Vazirlar qo‘mitasi tomonidan nazorat qilinadi.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudidan tashqari, Yevropa Kengashi doirasida murojaatlar uchun mas’ul nosudlov organlar ham faoliyat ko‘rsatadi. Ijtimoiy huquqlar bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi (European Committee of Social Rights) shular jumlasidandir. Qo‘mita Yevropa ijtimoiy xartiyasida ko‘zda tutilgan ijtimoiy huquqlarni himoya qilish va ta’minlash bilan shug‘ullanadi (Council of Europe, 1961).

Inson huquqlari sohasida Yevropa qit’asida joylashgan yana bir himoya mexanizmi Yevropa Ittifoqi (YI) mintaqaosti tizimidir. Mazkur tizim nisbatan yosh va hududiy yurisdiksiyasi cheklangan bo‘lishiga qaramay, eng dinamik tizim hisoblanadi. Fuqarolarning murojaatlari bilan asosan Yevropa Parlamentining Petitsiyalar bo‘yicha qo‘mitasi va Ombudsman (Mediator) kabi ixtisoslashgan organlari shug‘ullanadi.

Petitsiyalar qo‘mitasi (Petitions Committee) Yevropa Ittifoqi fuqarolari, rezidentlari, jismoniy va yuridik shaxslarning YI vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha Yevropa Parlamentiga yakka yoki jamoaviy petitsiya bilan murojaat qilish huquqini ta’minlaydi. Petitsiyalar YI huquqining noto‘g‘ri qo‘llanishi, fuqarolik va erkin harakatlanish, ichki bozor, iste’molchilar huquqlari, kamsitish, ekologiya hamda YI mablag‘lari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Qo‘mita murojaatlarni ko‘rib chiqadi va zarur hollarda Parlament muhokamasiga kiritadi, biroq sud qarorini bekor qilish, kompensatsiya tayinlash yoki davlat uchun majburiy qaror chiqarish vakolatiga ega emas.

Yevropa ombudsmani 1995-yildan buyon YI institutlari, organlari, idoralari va agentliklaridagi ma’muriy boshqaruv kamchiliklari (maladministration) yuzasidan fuqarolar va rezidentlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqadi. Bunga asossiz kechiktirish, axborot bermaslik, shaffoflikka rioya qilmaslik, manfaatlar to‘qnashuvi, teng munosabat va ma’muriy tartib-taomillarning buzilishi kiradi. Ombudsman milliy organlar va sudlar faoliyatini, shuningdek, YI Sudining sudlov qarorlarini tekshirmaydi. Shikoyat, odatda, faktlar ma’lum bo‘lganidan ikki yil ichida va tegishli YI organiga avval murojaat qilinganidan so‘ng beriladi. Sudda ko‘rilayotgan masalalar uning vakolatiga kirmaydi. Ombudsman yillik hisobot va tavsiyalar e’lon qiladi, ular majburiy bo‘lmasa-da, muhim siyosiy-amaliy ta’sirga ega. Murojaat qilish tartibi Yevropa Ittifoqining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi Lissabon shartnomasi (YIFLSh)ning 227-228-moddalarida o‘z aksini topgan (European Union, 2007).

Shunday qilib, har bir mintaqada xalqaro tashkilotlar doirasida murojaatlar bilan

ishlashning o‘ziga xos tizimi yaratilgan. Har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda mintaqaviy mexanizmlar ish uslubi, samaradorligi va murojaatlarni ko‘rib chiqishning tartib-taomillari bo‘yicha o‘zaro farqlanadi. Masalan, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi, Afrika Inson va xalqlar huquqlari komissiyasi va sudiga jismoniy va yuridik shaxslar to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilishi mumkin. Amerika davlatlararo sudiga esa jismoniy shaxslarning bevosita murojaat qilish huquqi mavjud emas. Biroq mintaqaviy institutsional mexanizmlarning formal mavjudligi ularning samaradorligini aniqlash uchun yetarli bo‘lmaydi. Ularning samaradorligi nazorat organining mustaqilligi, shaxs uchun ochiqligi, tekshiruv va qaror qabul qilish vakolati, vaqtinchalik choralar qo‘llash imkoniyati hamda qarorlar ijrosini nazorat qilish qobiliyati kabi mezonlar bilan o‘lchanadi.

Mintaqaviy organlarning subyektga daxldorlik, hududiy daxldorlik, vaqtga daxldorlik va predmetga daxldorlik yurisdiksiyasi, murojaat qilish huquqi subyektlari, dalillarni baholash usuli, vaqtinchalik choralar, huquqiy himoya vositalari va qarorlarning majburiy kuchi ham turlichadir.

Shu bilan birga, mintaqaviy mexanizmlarning faoliyatida umumiy jihatlar ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, universal mexanizmlarda bo‘lgani kabi mintaqaviy mexanizmlar amaliyotida ham lis pendens (ishning boshqa xalqaro organda ko‘rib chiqilayotganligi) hamda protsessning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik qoidalariga rioya qilinadi. ECOWAS sudini istisno qilganda, mintaqaviy tizimlarning barchasi ichki huquqiy himoya vositalarini tugatish talabiga bo‘ysinadi. Bu tamoyil murojaat huquqini ta’minlash bo‘yicha birlamchi mas’uliyat davlat va uning milliy institutlariga tegishli ekanini, xalqaro organlar esa milliy tizim himoyani yetarli darajada ta’minlamaganida ishga tushishini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, mintaqaviy himoya mexanizmlarining hammasi subsidiarlik xususiyatiga ega.

Tadqiqotning ilmiy natijasi sifatida murojaat qilish tartibidan kelib chiqib, mintaqaviy mexanizmlarning uch asosiy modelini ilgari surish mumkin: birinchisi – “to‘g‘ridan to‘g‘ri sud” modeli. Masalan, Yevropa inson huquqlari tizimida shaxs milliy huquqiy himoya vositalaridan foydalanib bo‘lgach, bevosita sudga murojaat qiladi; ikkinchisi – “komissiya–sud” modeli. Ushbu model Amerika va qisman Afrika mintaqaviy tizimida uchraydi. Amerikada shaxs avval komissiyaga murojaat qiladi, ishni sudga faqat komissiya yoki davlat olib chiqishi mumkin; uchinchisi – “to‘g‘ridan to‘g‘ri nosudlov mexanizmi” yoki nosudlov ma’muriy-siyosiy model. Masalan, individlar to‘g‘ridan to‘g‘ri Yevropa ombudsmaniga yoki Yevropa Parlamentining petitsiyalar bo‘yicha qo‘mitasiga murojaat qiladi, biroq murojaat sudgacha yetib bormaydi. Ular sud qarorini chiqarmaydi, lekin ma’muriy muammoni hal qilish, YI huquqining noto‘g‘ri qo‘llanilishini aniqlash va institutlarga siyosiy bosim o‘tkazish imkonini beradi.

Shu o‘rinda Osiyo va Markaziy Osiyoda inson huquqlarining mintaqaviy mexanizmlarini yaratish masalasini o‘rganib chiqish va mintaqa uchun mos modelni tanlash yoki yaratish imkoniyatini baholash maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, mintaqaviy mexanizmlarning eng ilg‘or Yevropa modelini mintaqamizga to‘liq ko‘chirib o‘tkazish mumkin emas. Buning uchun hozircha mintaqa davlatlarining siyosiy irodasi va shartnomaviy-huquqiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi yetarli emas. Shu bois bosqichma-bosqichlik tamoyili asosida dastlab doimiy ekspertlar va milliy institutlar tarmog‘i yaratish, keyin muayyan mavzular yo‘nalishida murojaat qilish va erta ogohlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish, so‘ng davlatlar roziligi asosida shartnomaviy kvazisudlov mexanizmini joriy etish, uzoq muddatda esa mintaqaviy sud tizimini yaratish g‘oyasi taklif etilishi mumkin.

Xulosa

Insonlarning xalqaro organlarga murojaat qilish huquqining mintaqaviy mexanizmlari

va tartib-taomillari tahlilidan quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, universal mexanizmlardan farqli ravishda ayrim mintaqaviy mexanizmlar ham sudlov, ham nosudlov yurisdiksiyasiga ega. Afrika va Amerika mintaqaviy mexanizmlari misolida individlar inson huquqlari bo‘yicha komissiyaga ham, sudga ham bevosita yoki bilvosita murojaat qilish huquqidan foydalanishi mumkin;

ikkinchidan, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudini istisno qilganda, mintaqaviy sudlar va nazorat organlari davlatga qarshi murojaatlarni ko‘rib chiqish va qaror qabul qilishda mutlaq vakolatga ega emas. Murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun tegishli davlat sudning yoki nazorat organining yurisdiksiyasini tan olgan bo‘lishi kerak. Xalqaro organga murojaat qilish imkoniyati, birinchi navbatda, davlatning tegishli shartnomaviy-huquqiy rejimga roziligi bilan belgilanadi;

uchinchidan, inson huquqlari bo‘yicha mintaqaviy mexanizmlar universal mexanizmlar bilan bir qatorda milliy himoya mexanizmlarining qo‘shimcha vositalari sifatida inson huquqlari himoyasining uchinchi “qalqoni” bo‘lib xizmat qiladi hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga ko‘mak beradi.

Xalqaro organlarga murojaat qilish huquqining mintaqaviy mexanizmlari mavzusi bo‘yicha xulosalarni umumlashtirgan holda xalqaro huquq va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha bir qator taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Ayniqsa, O‘zbekistonda xalqaro organlarga murojaat qilish huquqining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi universal, shu jumladan mintaqaviy organlarga murojaat qilish huquqini amalga oshirishga qaratilgan muayyan tashkiliy va huquqiy choralarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Birinchidan, davlat organlari, advokatlar, konsullik muassasalari va inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar uchun universal va mintaqaviy organlarning yurisdiksiyasi, murojaatlarni qabul qilish shartlari va vaqtinchalik choralar ko‘rish tartibiga oid yagona uslubiy standartlar ishlab chiqilishi zarur.

Ikkinchidan, xorijda O‘zbekiston fuqarolariga nisbatan huquqbuzarlik holati yuzaga kelsa ko‘p tilli elekrton qo‘llanma va murojaat yo‘nalishini aniqlovchi interaktiv xizmat yaratilishi lozim. Chunki O‘zbekiston fuqarolari xorijda bo‘lib turgan vaqtida huquqlari buzilgan taqdirda, ushbu vositalar yordamida mintaqaviy himoya mexanizmlaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanishlari mumkin.

Uchinchidan, advokatlar va huquqshunoslar malakasini oshirish dasturlariga Yevropa, Amerika va Afrika tizimlarida qo‘llaniladigan murojaat (ariza, shikoyat, xabar, kommunikatsiya) loyihasini tayyorlash, dalillarni hujjatlashtirish va muddatlarni hisoblash mavzularini kiritish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

Council of Europe. (1950, November 4). *Convention for the protection of human rights and fundamental freedoms (ETS No. 005, as amended by Protocol No. 15).* Council of Europe Treaty Series. https://rm.coe.int/1680a2353d

Council of Europe. (1961, October 18). *European Social Charter (ETS No. 035).* https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list?module=treaty-detail&treatynum=035

Economic Community of West African States. (2005, January 19). *Supplementary Protocol A/SP.1/01/05 amending the Preamble and Articles 1, 2, 9 and 30 of Protocol A/P.1/7/91 relating to the Community Court of Justice and Article 4 paragraph 1 of the English version of the said Protocol.* https://courtecowas.org/wp-content/uploads/2025/06/Supplementary_Protocol_ASP.10105_ENG.pdf

European Court of Human Rights. (2026, February 28). *Guide on the case-law of the European Convention on Human Rights: Immigration.* https://ks.echr.coe.int/documents/d/echr-ks/guide_immigration_eng

European Union. (2007, December 13). Consolidated versions of the Treaty on European Union and the Treaty on the Functioning of the European Union. *Official Journal of the European Union*, C 202/1. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A12012M%2FTXT

Huneeus, A. (2018). Between universalism and regional law and politics: A comparative history of the American, European, and African human rights systems. *International Journal of Constitutional Law*, *16*(1), 136–160. https://doi.org/10.1093/icon/moy013

Inter-American Commission on Human Rights. (2022). *Petition and case system: Informational brochure*. Organization of American States. https://www.oas.org/en/iachr/docs/booklet/folleto_peticiones_en.pdf

League of Arab States. (1994, September 15). *Arab charter on human rights*. UNHCR Refworld. https://www.refworld.org/docid/3ae6b38540.html

League of Arab States. (2004, May 22). *Arab charter on human rights*. United Nations Digital Library. https://digitallibrary.un.org/record/551368

Ninth International Conference of American States. (1948, April 16). *American declaration of the rights and duties of man (OEA/Ser.L/V/II.23, doc. 21 rev. 6).* Inter-American Commission on Human Rights. https://www.oas.org/en/iachr/mandate/Basics/american-declaration-rights-duties-of-man.pdf

Organisation of Islamic Cooperation. (2011, June 30). *Statute of the OIC Independent Permanent Commission on Human Rights (OIC-IPCHR).* https://oic-iphrc.org/docs/en/legal_instruments/OIC_HRRIT/802078.pdf

Organization of African Unity. (1981, June 27). *African charter on human and peoples' rights*. African Union. https://au.int/en/treaties/african-charter-human-and-peoples-rights

Organization of African Unity. (1998, June 10). *Protocol to the African charter on human and peoples' rights on the establishment of an African court on human and peoples' rights*. African Union. https://au.int/en/treaties/protocol-african-charter-human-and-peoples-rights-establishment-african-court-human-and

Organization of American States. (1948, April 30). *Charter of the Organization of American States* (OAS Treaty Series No. 1–A). Inter-American Juridical Committee. https://www.oas.org/dil/1948%20charter%20of%20the%20organization%20of%20american%20states.pdf

Organization of American States. (1969, November 22). *American convention on human rights "Pact of San José, Costa Rica"* (OAS Treaty Series No. 36). Inter-American Commission on Human Rights. https://www.oas.org/dil/treaties_b-32_american_convention_on_human_rights.pdf

Organization of American States. (1988, November 17). *Additional protocol to the American Convention on Human Rights in the area of economic, social, and cultural rights (Protocol of San Salvador).* https://www.oas.org/en/sare/social-inclusion/protocol-ssv/docs/protocol-san-salvador-en.pdf

Organization of American States. (2026). *Individual petition system portal.* https://www.oas.org/en/iachr/jsForm/?File=/en/iachr/portal/default.asp

Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan.* Lex.uz. https://lex.uz/docs/6445145

Shelton, D. (2013). *Regional protection of human rights* (2nd ed.). Oxford University Press.

Ulfstein, G. (2012). *Individual complaints.* In H. Keller & G. Ulfstein (Eds.), *UN human rights treaty bodies: Law and development* (pp. 73–115). Cambridge University Press.

Viljoen, F. (2012). *International human rights law in Africa* (2nd ed.). Oxford University Press.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence